



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

YOSHLAR ONGIDA HARBIY VATANPARVARLIK TUYG'USINI
SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Maxmudjonov I.I.

*Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti
harbiy ta'lim fakulteti magistranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada yosh avlodda harbiy vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishning pedagogik tamoyillari, tarbiyaviy jarayonning mazmuni va zamonaviy yondashuvlari tahlil qilingan. Oila, ta'lim muassasalari, mahalla va jamoatchilikning o'zaro hamkorligi hamda pedagogik texnologiyalarning samarali qo'llanilishi bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: harbiy vatanparvarlik, yoshlar tarbiyasi, pedagogik yondashuv, fuqarolik burchi, ta'lim-tarbiya, milliy g'urur.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЧУВСТВА
ВОЕННОГО ПАТРИОТИЗМА У МОЛОДЁЖИ

Махмуджонов И.И.

*Магистрант факультета военного образования Национального педагогического
университета Узбекистана имени Низами*

Аннотация: В данной статье проанализированы педагогические принципы формирования у молодого поколения чувства военного патриотизма, содержание воспитательного процесса и современные подходы к организации патриотического воспитания. Разработаны практические рекомендации по эффективному взаимодействию семьи, образовательных учреждений, махалли и общественности, а также по применению педагогических технологий в процессе воспитания.

Ключевые слова: военный патриотизм, воспитание молодёжи, педагогический подход, гражданский долг, образование и воспитание, национальная гордость.

PEDAGOGICAL FOUNDATIONS FOR FORMING A SENSE OF MILITARY
PATRIOTISM AMONG YOUTH

Makhmudjonov I.I.

*Master's student of the Faculty of Military Education of the National Pedagogical
University of Uzbekistan named after Nizami*





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Annotation: *This article analyzes the pedagogical principles of forming a sense of military patriotism among the younger generation, the content of the educational process, and modern approaches to organizing patriotic upbringing. Practical recommendations have been developed regarding effective cooperation between the family, educational institutions, the mahalla, and the public, as well as the effective application of pedagogical technologies in the educational process.*

Keywords: *military patriotism, youth upbringing, pedagogical approach, civic duty, education and upbringing, national pride.*

Bugungi globallashuv jarayonida yoshlar ongiga turli axborotlar kirib kelayotgani, mafkuraviy raqobat kuchaygani sharoitida harbiy vatanparvarlik tarbiyasining ahamiyati tobora ortib bormoqda. O'zbekistonning mustahkam mudofaa tizimini shakllantirish, yoshlarni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Shuning uchun ta'lim tizimida harbiy vatanparvarlik tarbiyasini ilmiy asosda tashkil etish dolzarb vazifa hisoblanadi [1].

Harbiy vatanparvarlik yoshlarning Vatanga sadoqatini mustahkamlovchi eng muhim ma'naviy-axloqiy sifatlardan biridir. Bu jarayonning asosiy mexanizmlari maktabgacha ta'limdan boshlab oliy ta'limgacha bo'lgan uzluksiz tarbiya tizimi orqali shakllanadi. Pedagogik yondashuvning markazida yoshlar ongiga milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotira, ajdodlar merosi, davlat ramzlariga hurmat singdirish masalalari turadi.

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi bo'yicha xorijiy va mahalliy ilmiy tadqiqotlarda yoshlarning fuqarolik burchini anglash, o'zlikni tasdiqlash, davlat ramzlariga hurmat, tarixiy xotira, ijtimoiy faollik kabi jihatlar asosiy omillar sifatida ko'rsatib o'tiladi. Pedagog olimlar tomonidan harbiy ma'rifat, vatanparvarlik o'yinlari, amaliy mashg'ulotlar, simulyatsion texnologiyalarning foydalari alohida ta'kidlangan [2].

Yoshlar ongida harbiy vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishning pedagogik asoslarini ilmiy tahlil qilish va samarali texnologiyalarni taklif etish.

Yoshlar ongida harbiy vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish vazifalari:

harbiy vatanparvarlik tushunchasining mazmun-mohiyatini ochib berish;

tarbiyaviy jarayonning asosiy tamoyillarini aniqlash;

ta'lim muassasasida vatanparvarlik tarbiyasining shakl va vositalarini tahlil qilish;


oila, maktab va jamoatchilikning o'zaro integratsiyalashgan faoliyatini yoritish;

jarayon samaradorligini oshirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqish.

Harbiy vatanparvarlik tushunchasining pedagogik mohiyati.

Harbiy vatanparvarlik – bu yoshlarning Vatanga muhabbat, davlat mustaqilligini himoya qilishga tayyorlik, fuqarolik burchiga mas'uliyat bilan yondashish, harbiy xizmatga hurmat kabi fazilatlarini o'z ichiga oladi. Bu tushuncha shaxsning ma'naviy-axloqiy sifatlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, tarbiyaviy faoliyatning markaziy yo'nalishlaridan biridir.

Ta'lim muassasasida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining shakllanishi.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Ta'lim muassasalari bu jarayonning asosiy bo'g'ini hisoblanadi.

Maktab va oliy ta'lim muassasalarida:

harbiy-amaliy mashg'ulotlar;

vatanparvarlik darslari;

tarixiy ekspeditsiyalar;

uchrashuvlar, ma'naviy suhbatlar;

harbiy sport musobaqalari kabi tadbirlar yoshlarning ongida milliy g'urur va mas'uliyat tuyg'usini mustahkamlaydi.

Ta'lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish, muammoli vaziyatlar, rolli o'yinlar, seminar-treninglar samaradorlikni oshiradi.

Oilaning tarbiyaviy roli.

Oila – shaxsning vatanparvarlik fazilatlarini shakllanadigan ilk maktabdir. Farzandning Vatan, millat, tarix, davlat bayrog'i va gerbiga bo'lgan hurmati oiladagi tarbiyaga bevosita bog'liq. Ota-onaning shaxsiy namuna ko'rsatishi bu jarayonning eng asosiy omilidir.

Oilada farzandga beriladigan ilk tarbiya uning vatanga munosabatini belgilaydi. Ta'lim muassasalarida esa harbiy-vatanparvarlik mashg'ulotlari, darsdan tashqari loyihalar, uchrashuvlar va harbiy sport tadbirlari yordamida bu jarayon yanada mustahkamlanadi. Mahalla va jamoatchilik tashkilotlarining qo'llab-quvvatlashi tarbiyaviy muhitni boyitadi [3].

Jamoatchilik va mahalla instituti bilan hamkorlik.

Mahallada o'tkaziladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, harbiy xizmatga chaqiriluvchilarga bag'ishlangan uchrashuvlar, faxriylar bilan suhbatlar yosh avlodga vatan himoyasiga bo'lgan mas'uliyatni kuchaytiradi. Jamoatchilik bilan hamkorlik - tarbiyaning uzluksizligini ta'minlaydi.

Pedagogik nuqtai nazardan, yoshlar bilan ishlashda interfaol metodlar, motivatsion treninglar, simulyatsion mashg'ulotlar, rolli o'yinlar va amaliy harbiy mashqlar muhim o'rin tutadi. Chunki bunday yondashuvlar yoshlarning ongida nafaqat bilim, balki burch va mas'uliyat tuyg'usini shakllantiradi. Maqolada ushbu jarayonning samaradorligini oshirish bo'yicha bir qator ilmiy-amaliy takliflar ilgari surilgan.

Harbiy vatanparvarlikni shakllantirishda pedagogik texnologiyalar.

Samarali vositalar:

media vositalari (videoroliklar, filmlar, hujjatli lavhalar);

virtual simulyatorlar;

axborot texnologiyalari;

loyihaviy o'qitish;

“Harbiy-texnik to'garaklar”;

“Ochiq eshiklar kuni” kabi tadbirlar.

Pedagogik texnologiyalar yoshlarning faolligini oshiradi, o'quv jarayonini mazmunli va qiziqarli qiladi [4].





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki yoshlar ongida harbiy vatanparvarlik tuygʻusini shakllantirish – bu uzluksiz, tizimli va mazmunli tarbiyaviy jarayon boʻlib, u oila, maktab va jamiyatning oʻzaro hamkorligini talab etadi. Pedagogik texnologiyalarning toʻgʻri qoʻllanilishi, milliy tarix va harbiy anʼanalarning chuqur oʻrgatilishi yoshlarning Vatanga sadoqatini mustahkamlaydi. Tadqiqot natijalari vatanparvarlik tarbiyasini yanada takomillashtirish uchun samarali ilmiy-amaliy tavsiyalarni beradi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. Mirzaxmedov Sh.M. (2022). Talabalarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning ustuvor shakllari. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2 (6), 467-477.
2. Moʻminov M. (2022). Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalalari. Oriental Art and Culture, 3 (2), 734-740.
3. Skvortsov I.P., & Glotov S.A. (2023). Zamonaviy sotsiokultural sharoitlarda yoshlar orasida vatanparvarlikni shakllantirish: nazariy va amaliy jihatlar. Moskva Pedagogika jurnali, (2), 6-20.
4. Sharipov M. (2024). Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiylashda sinfdan toshqari ishlar. Ilmiy taraqqiyot, №2, 169-179

